**Тадқиқот ўтказиш услубияти.** Тадқиқотлар дала шароитида олиб борилиб, бунда «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Дала тажрибаларни ўтказиш услублари» каби услубий қўлланмалар асосида олиб борилди. Ҳосилдорлик кўрсаткичларига Б.А.Доспеховнинг «Методика полевого опыта» қўлланмаси асосида дисперсион таҳлил услубида математик ишлов берилган.

Дала тажрибалари Сурхондарё вилоятининг тақир ўтлоқи тупроқлари шароитида 2018-2020 йиллар давомида олиб борилган. Тажрибада ғўзанинг ўрта толали «Бухоро-102» ва ингичка толали «Сурхон-103» навлари парваришланган далада агротехник тадбирлардан-кўчат қалинлиги ҳамда чилпиш усулларини ўсимликхўр қандалалар зарарига таъсири ўрганилган.

**Натижалар ва мунозаралар.** Ўсимликхўр қандалалар қирқдан ошиқ ҳар хил оилага мансуб бўлган ўсимликларни зарарлайди. Қандала сўрувчи ҳашоратлар гуруҳига мансуб бўлиб, ўсимликларни санчиб сўради ва кучли зарарлайди. Қандаланинг сони ўсимликлар турига, ҳаво ва тупроқ намлиги ҳамда ҳароратига, ўсимликнинг ёшига ҳамда қўлланилган агротехник тадбирларга боғлиқ бўлади.

Ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра, агротехник тадбирлардан кўчат қалинлиги ва чилпиш усулларини ўсимликхўр қандалаларнинг сонига ҳамда ғўзага етказган зарарига ҳар-хил таъсир кўрсатиши кузатилди.

Тажрибада ғўзанинг ўрта толали «Бухоро-102» нави (90-100 ва 110-120 минг туп\га) ва ингичка толали «Сурхон-103» нави (120-130 ва 140-150 минг туп\га) 2 хил кўчат қалинлигида экилиб, ғўзага чилпиш ўтказилмаган, чилпиш ўтказилган ва энтожеан қўлланилган вариантларда 15.09. санасида ўсимликхўр қандала билан зарарланиш даражаси бўйича кузатувлар олиб борилди (1-жадвал).

### 1-жадвал

#### Ғўзанинг ҳосил элементларига қандаланинг зарари

№	Кўчат қалинлиги, минг туп\га	Чилпиш усуллари	Ғўза ҳосил элементларининг қандала билан зарарланиши (15.09.2020 й.)		
			Ҳосил элементлари сони, дона	Зарарланиши, дона	Зарарланиш, %
<b>«Бухоро-102»</b>					
1	90-100	Чилпиш ўтказилмаган	23,4	3,4	14,5
2		Чилпиш ўтказилган	27,5	2,3	8,4

3		Энтожеан қўлланган	28,3	2,0	7,0
4	110- 120	Чилпиш ўтказилмаган	21,1	3,8	18,0
5		Чилпиш ўтказилган	24,6	2,7	10,9
6		Энтожеан қўлланган	26,2	2,2	8,4
<b>“Сурхон-103”</b>					
7	120- 130	Чилпиш ўтказилмаган	20,0	2,1	10,5
8		Чилпиш ўтказилган	21,6	1,6	7,4
9		Энтожеан қўлланган	23,0	1,3	5,6
10	140- 150	Чилпиш ўтказилмаган	16,3	2,4	14,7
11		Чилпиш ўтказилган	18,0	2,0	11,1
12		Энтожеан қўлланган	20,5	1,3	6,3

Олинган маълумотларга кўра, сентябр ойининг 15 санасида ўтказилган кузатувда ўрта толали ғўзада ҳосил элементлари сони 21,1-28,3 донани ташкил қилиб, шундан 2,0-3,8 донаси қандала билан зарарланган. Энг кўп зарарланиш ўсимлик 110-120 минг туп\га кўчат қалинлигида чилпиш ўтказилмаган 4-вариантда кузатилиб, бир туп ўсимликдаги ҳосил элементларнинг 3,8 донаси қандала билан зарарланган. Ғўза туп сони гектарига 90-100 минг туп бўлганда ҳосил элементлари сони 23,4-28,3 дона бўлиб, 110-120 минг туп\га кўчат қалинлигига нисбатан 2,1-2,9 донага кўп ва қандала билан зарарланиш даражаси эса 1,4-3,5% гача кам бўлди.

Тажрибада ингичка толали ғўзанинг “Сурхон-103” навида ҳам қандалалар сони ва ғўзага етказган зарари аниқланди. Ингичка толали ғўза гектарига 120-130 минг туп кўчат қолдирилиб, чилпиш ўтказилмаган, чилпиш ўтказилган ва энтожеан билан кимёвий чилпиш ўтказилган вариантларда ғўзани ўсимликхўр қандалага бардошлиги аниқланганда юқори натижа кимёвий чилпиш ўтказилган вариантда кузатилди. 15 сентябрдаги кузатув натижаларига кўра, ғўзада ҳосил элементлари 20,0-23,0 донагача бўлиб, шундан 1,3-2,1 донаси қандала билан зарарланган. Қандала билан энг кўп зараланиш ғўзада чилпиш ўтказилмаган

вариантда кузатилиб, қўлда чилпиш ўтказилган вариантга нисбатан 3,1% ва кимёвий чилпиш ўтказилган вариантга нисбатан 4,9% кўп зарарланган.

Кўчат қалинлиги гектарига 130-140 минг туп бўлганда ғўзада ҳосил элементлари сони камайиб, қандалалар сони ва зарарлаш фоизи кўпайиб борди. Яъни, кўчат сони ошиши билан сентябр ойидаги кузатув натижаларига кўра ҳосил элементлари 2,5-3,7 донагача камайиб, қандала билан зарарланиш фоизи эса 3,7-4,2% га кўп бўлди.

**Хулоса.** Республикамизнинг жанубий минтақаси Сурхондарё вилоятининг тақир ўтлоқи тупроқлари шароитида ғўзага зарар етказадиган ўсимликхўр қандалаларга қарши такомиллашган агротехник тадбирлардан мақбул кўчат қалинлиги ҳамда чилпиш усули ўз вақтида сифатли ўтказилганда ўсимликхўр қандалалар сони камайиши ва натижада пахта ҳосили ошиши кузатилди. Ўрта ва ингичка толали ғўза навларини қандала зарарига бардошлигини ошириш учун ўрта толали навларни гектарига 90-100 минг туп; ингичка толали ғўза навларини эса 120-130 минг туп кўчат қолдириб, Энтожеан кўллаш орқали кимёвий чилпиш ўтказиш мақсадга мувофиқдир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар руйхати (REFERENCES)**

1. Бобоева Н., Негматова С. Ингичка толали ғўза навларини парваришлашда қандалалар зарарига агротехник тадбирларнинг таъсири. *Innovative Development in Educational Activities “International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21 st century 2022/4” Tashkent, 2022/ 22 october.* Б.64-69.

2. Негматова С., Бобоева Н. Ўсимликхўр қандалага қарши агротехник кураш усуллари. Биологияда замонавий тадқиқотлар: муаммо ва ечимлар. Ҳалқаро илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. 2022 йил 11-12 октябр. Термиз. 107-111 б.

3. Қўчқоров А.Х., Мусаев Д.М. Эргашева Ҳ.А. Ўсимликхўр қандалаларнинг Сурхондарё вилояти шароитида тарқалиши. *Илм-фан ва инновацион ривожланиш.* №2, 2019. 86-90 б.

4. Boboeva N.T., Negmatova S.T. *Effects of Improved Agrotechnical Measures on Harmful Harvesting of Medium-Fiber Cotton Varieties. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. SJIF Impact Factor (2021): 5.256. Vol. 2 (2021): TJM. Published: Nov 5, 2021. Pp-25-28.*

5. Wheeler A.G. *Biology of the Plant Bugs (Hemiptera: Miridae): Pests, Predators, Opportunists.* –New York, 2001. –507 pp



## AYOLNI E'ZOZLASH - O'ZBEK XALQIGA XOS OLIJANOB XUSUSIYAT

**Mirzayeva Faroxat Odiljonovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Pedagogika kafedrası dotsenti

**Darobov Rahmonjon Ravshan o'g'li**

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi

302-guruh (kechki) talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, o'zbek millatining o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, oilaning, oilada esa ayolning o'rni, gender tenglik va oila masalalari yoritilgan bo'lib, ularning oilaga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli ko'rsatib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** jamiyat, oila, ayol, gender tenglik, ma'naviyat, millat, an'ana.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье отражены вопросы повышения роли женщин в обществе, формирования и повышения самобытности узбекской нации, роли семьи, семьи, гендерного равенства и семьи, их отношения к семье, роль в общественной жизни.*

**Ключевые слова:** общество, семья, женщина, гендерное равенство, духовность, нация, традиция.

### ANANNOTATION

*This article reflects the issues of increasing the role of women in society, the formation and enhancement of the identity of the Uzbek nation, the role of family, family, gender equality and family, their attitude to the family, and the role in public life.*

**Key words:** society, family, woman, gender equality, spirituality, nation, tradition.

Uchinchi Renesansga qadam qo'yayotgan yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida fidokorona mehnatda aynan ayollarimizning alohida o'rni borligi ko'ngilda faxr tuyg'usini yuksaltiradi. Zotan, ayoli e'zozlangan yurtda yashashning o'zi saodat, shunday emasmi?! "Bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma'naviy darajasini



avvalo shu yurt ayollarining ma'naviy saviyasi belgilaydi. Bugungi kunda dunyoda "fidoyi" degan so'zga eng munosib bo'lgan Ona siymosi oldida ta'zim qilamiz. Hayotimiz quvonchi, xonadonlarimiz ko'rki bo'lmish aziz ayollarimiz sha'niga eng go'zal tilaklarimizni izhor etamiz. Ayol siymosi Yaratganning tengsiz mo'jizasi bo'lib kelgan va hamisha shunday bo'lib qoladi", – deydi hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xos olijanob xususiyatlardan biri sifatida qarab kelingan.

O'zbek millatining o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, oilaning, oilada esa ayolning o'rni va ta'siri beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-81-son Farmoniga binoan xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasini, mahalliy xalq deputatlari Kengashlarida esa Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha olib borilayotgan tizimli ishlar bugungi kunda ayollarga bo'lgan e'tiborning qay darajada ekanligini ko'rsatadi. [1]

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasiga yordam ko'rsatish, maslahat berish mexanizmi hamda chora-tadbirlari, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish to'g'risida axborot olishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining butun hududida tunu kun ishlaydigan, bepul telefon liniyasi tarmog'i (ishonch telefoni) ishlab turishini ta'minlash tizimi ham joriy qilinganligi o'z muddatida kiritilgan qoidalardan biri bo'ldi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning nafaqat kundalik turmushda, jamiyatimizda ham mavqei, nufuzi oshib bormoqda.

Millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o'rni va ta'siri beqiyos. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida va

ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Yurtimiz xotin-qizlarining jamiyatdagi o'ri, ularning oilaga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli g'oyat muhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqei ham har jihatdan yuqori baholanmoqda. Jahon hamjamiyati, nufuzli xalqaro tashkilotlar e'tirofiga ko'ra, O'zbekiston ayollar uchun munosib muhit yaratgan mamlakatlar qatoriga kiritilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda azal-azaldan muhtarama ayollarga yuksak ehtirom ko'rsatib kelinadi.

Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida O'rta Osiyo xalqlarining o'tmishini o'rganish va unda ayollarning tutgan o'ri, maqomi va albatta ma'rifati darajasini aniqlash o'sha davrning madaniyati va ma'naviyati darajasini ham belgilashga zamin yaratadi. Shu o'rinda, bugungi O'rta Osiyo ayolining jahon miqyosida topayotgan shuhrati, ularning ilm sohasida, iqtisodiyot, ma'naviy-ma'rifiy sohada qilayotgan mehnatlari, yurt taraqqiyotiga qo'shayotgan sezilarli hissalarini alohida ta'kidlab, ayollarning o'tmishda ham shunday ajdodlari borligini faxr va g'urur to'yg'usiga aylantirish bugungi kun pedagoglari oldida turgan eng muhim vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-81-son Farmoniga binoan xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasini, mahalliy xalq deputatlari Kengashlarida esa Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha olib borilayotgan tizimli ishlar bugungi kunda ayollarga bo'lgan e'tiborning qay darajada ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-son Farmoniga Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga

oshirish maqsadida yurtimizda birqancha ishlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar» doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida «Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish» belgilangan.

Ushbu maqsadga erishish uchun xotin-qizlarning o‘z huquq va manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirishida ularni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi dasturlarni kengaytirish talab etiladi.

2022 — 2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur (keyingi o‘rinlarda — Milliy dastur) xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

Milliy dastur O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida», «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida», «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining «2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida»gi qarori, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi qoidalar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan.

Xullas, o‘zbek ayolining ma’naviyati millatning nafaqat o‘tmishi va buguni, balki kelajagining ham asosiy o‘lchovi bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-81-son Farmoni. 2022 yil 1 mart.*

2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi PQ-5020-sonli “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2021 y.*

## А.СУЛТАНОВНИНГ ЭСТЕТИК ҚАРАШЛАРИ ЧОЛҒУ МИНИАТЮРАЛАРИ

Бекмуратова Гулзада Тлеумуратовна

ЎзДК хузуридаги Б.Зокиров номидаги Миллий эстрада ва санъат институти  
“Муסיкий назарий ва тарихий фанлар” кафедраси ўқитувчиси

### АННОТАЦИЯ

*Ушбу мақолада қорақалпоқ муסיқа санъати ривожига ҳисса қўшган композитор Абдирейим Султановнинг чолғу миниатюралари ва уларнинг таҳлил қилиши орқали ижодкорнинг эстетик қарашларини белгилаш, услубларини аниқлашга ва композиторнинг ўзига хослиги томонларини очиб беришга ҳаракат қилинди.*

*Калит сўзлар:* муסיқа, санъат, композитор, ижод, таҳлил, миниатюра, шакл.

### ANNOTATION

*In this article, the composer Abdireyim Sultanov, who contributed to the development of Karakalpak musical art, was treated by instrument miniatures and their analysis to define the aesthetic vision of the artist, identify his styles and reveal the aspects of the composer's originality.*

*Key words:* music, art, composer, artist, analysis, miniature, form.

Муסיқада миниатюра деб хажм жихатидан унчалик катта бўлмаган пьесага айтилади. Миниатюра нафақат чолғу ва вокал йуналишида балки камер ансамбли ва оркестр учун ҳам ёзилиши мумкин. Миниатюраларга романслар, прелюдиялар, ноктюрнлар, рақслар, этюдлар, дастурли пьесалар киради. Концерт дастурларида миниатюралар йирик асарлар орасида жуда кам ижро

этилади. Шакл жихатидан миниатюралар хар хил бўлиши мумкин: одатда бундай пьесалар оддий 2 қисмли ёки 3 қисмли шаклларда, яна рондосимон шаклда ҳам ёзилиши мумкин. Кўпинча миниатюралар ўз номига эга бўлиб, унинг номи мусиқий характерини мазмунини ва қайси жанрга тегишли эканини кўрсатади. Гарчан миниатюралар алоҳида пьеса ҳисобланса ҳам улар қандайдир бир туркумга тортилишини сезиш мумкин. *Уларни қандайдир умумий тамойил (принцип) билан боғлашади. Композиторлар миниатюраларни кўпинча туркумларга киритади, сабаби пьесаларнинг хилма-хил ва ранг-баранглигини умумий композицион ва мантиқий томонидан бирлаштириши мақсадида ишлатади.*

Миниатюрнинг ривожланган даври мусиқий романтизмга туғри келади ва миниатюра жанри замонавий мусиқада ҳам кенг тарқалган.

*Миниатюра жанрида бир қанча ҳақиқий шох асарлар яратилган.* Фортепиано мусиқасининг бошқа жанрлари билан бир қаторда фортепиано миниатюраси турли даврларда ижод қилган бир қатор композиторлар учун муҳим ижодий лаборатория бўлган. В.Моцарт, Л.Бетховен, Ф.Шуберт, Ф.Шопен, Р.Шуман, Ф.Мендельсон, И.Брамс, Д.Д.СкарлаттиЭ.Григ, М.И.Глинка, А.С.Даргомыжский, М.П.Мусоргский, А.П.Бородин, А.К.ЛядовС.Рахманинов, С.Прокофьевлар шулар жумласидандир. Г.Мушель, Д.Сайдаминова, Н.Закиров, М.Атажонов каби бир қанча ўзбек композиторлари ва қорақалпоқ композитори А.Султанов ҳам мазкур жанрга мурожаат этишган. Таъкидлашимиз зарурки, ўзининг шаклланиши ва XX асрнинг 90-йилларигача алоҳида эътибор, асосан симфония, балет, опера каби монументал жанрларга қаратилган эди. Бироқ йирик жанрларнинг бу каби “рағбати” ўзбек ва қорақалпоқ композиторларининг кичик шаклларга бўлган қизиқишини сусайтирмади.

Инсоният тарихининг турли хил босқичларида, турли хил миллий маданиятларда мавжуд бўлган поэтик, мусиқий, адабий, тасвирий санъатнинг беҳисоб жанрлари орасида кичик шакллар деб номланувчи, миниатюра тамойиллари билан боғлиқ бўлган жанрлар ўзига хос ўрин эгаллаганлар. Мазкур

жанрларда яратилган бадиий асарлар ўзларининг эстетик функцияларига кўра нафақат йирик шаклларнинг монументал санъатини тўлдирадидилар, унга зарур бўлган фонни яратадилар, балки уларнинг ўзлари ҳам санъат ва ҳаёт учун ниҳоятда муҳим ва қимматлидирлар. Уларнинг ривожини бадиий маданият тўлиқлигининг зарурий шартини, санъатнинг етуклиги, оқиллиги, маънавий зийраклиги ва таъсирчан кучининг далолати бўлиб, унинг шакл ва воситалари камоли, халқ поэтик онги маҳобатининг белгисидир. Фортепиано миниатюраси жанрлари соҳаси ўзининг бадиий масалалари ва амалий қўлланишига кўра жуда кенг ва турли хилдир. Муסיқашунослик адабиётларида фортепиано миниатюраси жанрлари катта ва кичик шаклларга бўлинади. Ю.Тынянов, Н. Гуляницкая, Л. Фрейвертларнинг фикрича улар орасидаги асосий фарқ нафақат шаклнинг ўлчамида, балки шакл қуриш ўзига хосликларида ҳамдир. Катта шаклларда йирик унсурларга урғу берилади, кичикларида эса деталлар ва нюансларга.

Композитор А.Султановнинг ижодий йулига биз назар солсак ў хар томонлама бой ва такрорланмасдир. Унинг яратган асарлари орасида энг кичик жанр кўшиқдан бошлаб то операгачон ёзилган асарларни кўришимиз мумкин.

А. Султановнинг асарларидаги мелодик мавзуйиликни мана шу доирадаги тадқиқотлар, жумладан И.Земцовскийнинг қарашлари бўйича таҳлил қиладиган бўлсак, Султановга тегишли композиторлик фольклоризм яъни композитор А.Султанов ўзининг асарларида ишлатган қорақалпоқ муסיқий фольклорининг автори хисобланади.

Унинг вокал, сахнавий асарларини, чолғу муסיқаларини, халқ чолғу оркестри учун ёзилган асарларини таҳлилидан шуни кўзатиш мумкинки, уларда қорақалпоқ муסיқий фольклорининг ўзига хос хусусиятларини кўришимиз мумкин.

Султановнинг фортепиано учун ёзилган миниатюралари унинг қорақалпоқ кўйларини гармониялаш усулларини ўрганиш учун ёзилган экспериментал лабораторияси десак адашмаимиз. Чунки бу миниатюралар бир пайтда

ёзилмаган ва композитор ўз ўстида ишлаш, қорақалпоқ колоритини кўрсатиб бера оладиган гармонияларни яратиш учун ёзилган бўлиши мумкин. Шунинг билан бирга миниатюраларда ишлатилган фольклор мавзулари композиторнинг ўзига тегишли бўлиб, автор қорақалпоқ халқ кўйларининг барча хусусиятларини ўзига синдирган десак адашмаймиз (хам семантика жихатидан ва тузилиш жихатидан).

А. Султанов ўз миниатюраларида қорақалпоқ мелоси сирларини ички дунёси билан тушуниш жараёнида синаш ва хатолар орқали изланиб, гармониялаш йўлини чамалаб топгандай бўлди. Унинг фортепиано миниатюраларида мусиқа ифода восита усуллари ва қуролларини топиши ва кейинчалик унинг қўшиқ ёзиш ижодида хам давом этилиб касбий марраларни забт этди.

А. Султановнинг фортепиано учун ёзилган миниатюралари XX аср асрнинг иккинчи яримига тегишли бўлиб, мана шу жанрнинг мохиятини ўрганиш учун яратилган биринчи тажрибаларидан ҳисобланади. Унчалик катта бўлмаган фортепиано асарларининг жанрли мажмуи (палитраси) жуда кенгдир. Ўларнинг хатто оддий рўйхати шуни кўрсатадики улар баъзида бир томондан қалам тебратиш (ўзини синаш) бўлса, бошқа томондан эса ижодий лаборатория бўлиб, ихтиёткорона ёндашиб, лекин шунинг билан бирга қорақалпоқ фольклорини ўзлаштиришга қаратилган, яъни фольклор-композитор муаммоси Султанов бўйича ривожланган. Ўзининг композиторлик фольклоризмини фортепиано учун яратилган миниатюра соҳасида яратишга ҳаракат қилган.

Семантик нуқтаи назардан булар унчалик катта бўлмаган пьесалар жанр томонидан аниқланган: “Прелюд”, “Каракалпакская колыбельная-Алле”, “Прелюдия”, “Еденбай”, “Саяхат”, “Тахта-копир”, “Каракалпакский вальс”, “Прелюдия 1”, “Прелюдия 2”, “Прелюдия Шымбай”, “Танец” “Экспромт”.

2016 йилнинг июль ойида композиторнинг беваси билан учрашувда А. Султановнинг бугунги кунда унутилган ва эъбордан четда қолган қўлёмаларини топишга муваффақ бўлдик. Лекин 20 асрнинг 70-йиллари охири



80-йилларнинг бошларида Нукусда композитор томонидан яратилган фортепиано учун ёзилган кичик шакллар нафақат муаллифнинг янги жанрни забт этиши, балки бу асарлар миниатюра жанрида бўлса ҳам муаллифнинг мувафақиятидир. Шунинг билан бирга бу жараёнда Қорақалпоғистонда болалар фортепиано муסיқасининг ривожланишига ҳам тurtки бўлди. Бу Республиканинг болалар муסיқа дунёси ранг-баранг бўлиб, у хайратланарли даражада яқиндир. Булар Қорақалпоғистонда ижод ва муסיқий педгогиканинг янада ўсиши, келажакда фортепиано ирочилигидаги маданиятни ўсириш ва амалга ошириш учун асосдир.

Бу тарихий жараёнларнинг мухим таркибий қисмларидан бири шуки, болалар муסיқа мактаблари тармоғи шакллантирилди ва бойитилди, қорақалпоқ миллий кадрларни тарбиялашга эъбор қаратилди ва буларнинг натижаларини хозирда гувоҳи булаябмиз. А. Султанов томонидан камтарона бошланган Қорақалпоқ композиторлик мактаби пайдо бўлиб, у етарли даражада қўлга олинди.

А. Султановнинг чолғу муסיқаси соҳасидаги ижодий фаолияти, хусусан фортепиано миниатюра жанрида камтаронадир, лекин шуни таъкаидлаш жоизки, унинг халқ муסיқа фольклорини ўзлаштириш йўли ва ўзининг композиторлик муаллифлик мавзуйлигини яратганлигини баҳолаш жуда қийиндир.

А. Султановнинг биринчи тажрибалари шуни кўрсатадики улар ўзининг ишлатилган миллий хусусиятига эга бўлиб, қорақалпоқ фольклор дурдоналари билан боғлиқдир. Гарчан булар камдан-кам ўчрайдиган фортепиано асарлари бўлиб, у композиторнинг муסיқий мерослари орасида можизакорона сақланиб қолган. Бизга композиторнинг пианистлиги ҳақидаги маълумотлар етарли эмас, шунингдек ўнинг ижро маҳорати ҳақида ҳам ҳеч қандай тасаввурга эга эмасмиз.

Қорақалпоқ Халқ Чолғу Оркестрининг асосчиси ва дирижёри деган маълумот бизда бўлиб, бу эса уша давринг улкан (буюк) етишганлигидир.

Юқорида тилга олинган А. Султановнинг фортепиано опуслари етарли даражада кизиқарли бўлиб, асосан қорақалпоқ кўйларининг ижро маҳоратининг

такрорланишига якинлигини керакли даражада унга бўйсунушга ҳаракат қилади, масалан интонацион айланмалар (оборотлар), ритмик ва метрик хусусиятлар.

“Прелюд” - хотиржам ва ифодали бўлиб бошланади. Ҳақиқатан ҳам ўнчалик катта бўлмаган куйчан, бир нафаста ёзилган, бир қисмли пьеса, гаплар анъанавий квадрат кўринишида тузилган (4+4). Асарнинг ўртасида кульминацияга олиб борадиган элементлар ишлатилган. Аммо “Прелюд”нинг яқунланмагани жуда ачинарли ҳолатдир. Асар давомида унинг куйчанлик интонациясини халқ куйларига якинлигини сезамиз, лад томонидан, ритм жиҳатдан, ҳатто имитацион ижро элементларида қорақалпоқ халқ кўшиқларида ишлатиладиган дутор эффе́ктини берувчи жўрнавозни кўришимиз мумкин. Такроранувчилик композиторнинг умумий хусусиятларини бирлаштирувчи, ундан ташқари композитор томонидан хар-хил регистрларда тез-тез ишлатиладиган ва партияларнинг чап ва ўнг қўлга ўтишларини кўришимиз мумкин.



Мана шу хусусиятлар фортепиано учун ёзилган “Қорақалпоқ алласи” “Алле” асарида ҳам сақланиб қолинган. Асарнинг бошида композиторнинг ўзи таъкидлаганидек пьесанинг жанрини фортепиано учун қайта ишланган қорақалпоқ халқ алласи деб курсатиб ўтган. Шошилмасдан Moderato temp ида, фригийского d-moll ладида куйларининг квадрат шаклида тузилишини кўрамиз

(2+2+2 ва х.к) агарда диққат билан қараб чиқилса қўйдагиларни кўришимиз мумкин: а а в в1 а а1 в2 в2 сода янги фортепианонинг хар хил регистрларида такрорланганлиги, поғоналаринг хроматик яримтонлар билан поғоналарнинг алмашиши (f-fis, h-b) – бўларнинг барчаси қорақалпоқ халқ чолўуларининг ижрочилик усулларига жуда яқин.



“Еденбай” прелюдияси хайрон коларли жаражада янги, хотиржам ва мулохазали ёрқин g-moll тоналлигида ёзилган. Мавзунинг характерли мелодик йўналиши, секундали интонация тузилиши ва ушлаб турилган тоника аккорди, теруия тонининг хроматик тебраниши (b-h) кейин эса VI поғонага (es-e) ўтиши табиий тузимдаги (строи) дутор овозининг ассоциациясини билдиради. Шунини алоҳида айтиб ўтиш жоизки А. Султанов бу услуби фортепиано пьесаларидан ташқари яна хор асарларида, оркестр усун ёзилган асарларида ҳам жуда кўп ишлатган. а-а-а-в-в+якунлов (8т. 8т. 8т.8т.) бундай квадратли схема ва унинг вариантлари А.Султанов пьесасини миллий мусиқий манбага яқинлаштиради. Бу пьесанинг гармоник тили, бошқа фортепиано асарлари каби оддийдир ва диссонантлик кескинликсиз, лекин тез-тез мажор-минор терциясини алоҳида кўрсатиб, у қорақалпоқ мусиқий фольклорига хос бўлиб композитор ҳам чолғу асарларида, ҳам вокал асарларида кўп бора ишлатган.

**Moderato**

3

9


«Саяхат» пьесасининг бошланишини А. Султанов ўзининг ўзига хос услубини кўрсатиб берадиган квинта доирасида секунда бўйча тузилган мавзу, терцияли гармонизация билан кўйсанг бўлиб келади. Кейин яна D-dur асосий тоналликга қаитиб келиб, унда ўткинчи товушлар сифатида (d-dis, g-gis, e-es, c-cis-c)хроматик тарзда ладнинг 1 3 4 7 поғоналарида келади. Композитор бундай айланмалар билан табиий ладда чолғулар ўинини имитациялаган. Қорақалпоқ халқ чолғу оркестрига бошчилик қилган композитор А. Султанов, температураланган, реконструкция қилинган чолғулардан фойдаланган.

**Allegro moderato**

9

А. Султановнинг «Қарақалпақский вальс» қўлғезмаси қисқа а лўнда икки қисмла шаклда, асл қорақалпоқ рақсларига ўхшаш қилиб яратилган. Бу пьеса

профессионал тарзда модуляция усулларни ишлатган холда ва тугатилган миниатюра структурасида ёзилган.




Мелодик харакати, чап қўл ифода методи, ритмик хар хиллик, фактурнинг деталлари- бунинг хаммаси композиторнинг махоратининг исботидир. У ўзининг мусикий фольклорига таяниб, унинг алохида усуллари, интонацияси, айланмаларига асосланиб қорақалпоқ вальсини яратди.



“Прелюдия 1” e-moll гармоник тоналлигида, Allegretto темпида, 3/4 ўлчамда ёзилган бўлиб бу асарга композитор бошқа миниатюраларига нисбатан мавзуйлик жихатдан замонавий ёндашган десак янглишмаймиз. Лирик характерда ёзилган бўлиб қорақалпоқ қизларининг ўй-хаёлини тасвирлаб бераётгандек сезилади. Эшитилиши қорақалпоқ халқ куйларига жуда яқиндир. Прелюдиянинг шакли икки қисли репризали бўлиб, биринчи қисми учта гапдан

(фраза) ташкил топган хар битта гап (фраза) тўрт тактдан иборат ва умумий биринчи қисм ўн иккинчи тактдан тўғайди.



Асарнинг иккинчи қисми ноквадрат ёзилган бўлиб ўнбеш тактдан иборат. Бу қисмни икки гапга бўлиш мумкин, биринчи гап тўққиз такт, иккинчи эса олти тактдан иборат. Ундан ташқари фактура жихатдан ҳам булар иккига бўлинганлигини кўрамиз. Характер томонидан биринчи қисмга қарама-қарши яъни шўх кайфиятда берилган. Фактура томондан бу ерда аккордлар кетма-кетлигини ва бу кетма-кетликлар дутор ритмик суръатига асосланганини, иккинчи гапдаги троиль сифат ўнг қўлда берилган куй эса композиторнинг сеvimли элементи бўлиб, шу орқали кульминацияни кўрсатиб берган ва репризага олиб келади.

15

20

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. *Адамбаева Т. Қарақалпақ совет музыкасы тарихынан. Ноқис, 1985.*
2. *Адамбаева Т. XX асрге шекемги қарақалпақ халқ музыкасы. Ноқис, 1978.*
3. *Азимова А. Звуковой мир каракалпаков. Т., 2008*
4. *Ноталар композиторнинг қўлёзмаларидан олинган.*



## NABI JALOLIDDIN HIKOYALARIDA OBRAZLAR TAHLILI

**Alimbayeva Nodira**

Urganch davlat universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada yozuvchi va publitsist Nabi Jaloliddinning “Dayus” hamda “Erkagi bor uy” nomli hikoyalari qamrovga olinib, tahlil qilinadi, hikoyalarning uslubi, mavzu va g‘oyasi, yozuvchi mahorati, obraz va obrazlilik masalalariga e‘tibor qaratiladi. Adib asarlarining o‘xshash va farqli jihatlari, qahramonlar ruhiyatining badiiy talqini haqida fikr mulohazalar olib boriladi.*

**Kalit so‘zlar:** hikoya, mavzu va g‘oya, yozuvchi mahorati, obraz va obrazlilik, uslub va tagma‘no, badiiyat.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining atoqli vakillaridan biri –yozuvchi, publitsist Nabi Jaloliddindir. Adabiy jarayonda Nabi Jaloliddinning qator hikoyalari xususida iliq fikrlar aytiladi. Ma‘lumki, hikoyachilik nasrning eng ilg‘or va tezkor janrdir. Yozuvchi hikoyalari oddiy hayotiy voqealar tasviri orqali namoyon bo‘lsa-da, ayni vaqtda tag‘mano o‘zida davr belgilarini, zamon dardlarini, yuksak insoniy his tuyg‘ularni aks ettirgan. Nabi Jaloliddin mavzu tanlashda jamiyatdagi, insonlar orasidagi, eng dolzarb muammolarni qalamga oladi. “Dayus” hikoyasi ham ana shu jihatdan karakterlidir. Yozuvchi bu hikoya qahramoniga nom bermaydi, bunday holatni boshqa hikoyalarda ham kuzatishimiz mumkin. Hikoya qahramoni kambag‘al oilaning boshlig‘i, uch nafar farzandning otasi edi. U kamgap, sodda, o‘ychan inson sifatida tasvirlangan. Uning va ayolining dardi qanday qilib bo‘lsa ham bolalarining qornini to‘ydirish edi. Nabi Jaloliddin hikoya boshidayoq asar go‘yasiga o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan mazmunga ishora qiladi: “Uch-to‘rt to‘g‘ram suvi qochgan uy noni-yu, yarimta bulka bilan nonushta qilishdi. Nonni asosan bolalari yerdi, xotini esa nomigagina tatinib o‘tirdi...” Bu tasvirdan ko‘rinadiki hikoyada faqat bir yoki bir necha oilaning emas, balki xalqning turmush tarzi ko‘rsatilmog‘da.

“..... Bizam bug‘doy o‘g‘irlagani chiqaylik. Odamlar rosa tashiyaptiykan” –deb to‘ngilladi unga xotini. “Nima qo‘riqlaydigan odam yo‘g‘akanmi?” –so‘radi eri

beparvogina. “Qo‘riqchi bo‘lsa nima? Otvorarmidi? Magazinda un bo‘lmasa, un bo‘lsa ham pul bo‘lmasa. Nima ochimizda o‘lishimiz kerakmi?” Bundan anglashiladiki, bu “ish” bilan shug‘ullanadiganlar anchagina. Ular ham chorasizlikdan, o‘z oilasini boqish uchun mana shu “ish”ga qo‘l urishayotgan edi. Xalqning turmush tarzi achinarli tarzda bo‘lib qolgan ediki, o‘g‘irlik qilishdan o‘zga choralari qolmagan edi. Ular ham tun yarmi bo‘lgach, hamma uxlagandan keyin bug‘doyzorga borishni reja qilishdi. Tun yarmi ham bo‘ldi, bug‘doyzor tomonga yo‘l olishdi. Bug‘doyzor ularning uyidan unchalik ham uzoqda emas edi, bir yoki ikki ko‘cha yurgandan keyin yetib boriladi. Bug‘doyzor ichiga kirib borarkan bu yerda bir qancha insonlarning sharpalari ko‘rindi. Ular ham tirikchilik uchun shu yerda edilar. Er xotin bug‘doyzor ichida bug‘doy terisharkan bir payt ular Kastro isimli melisaga duch kelishadi. Kastro bug‘doyzor oralab uning oldiga emas, balki xotining oldiga boradi. Xotini undan sal nariroqda edi. Kastro uning yoniga keldib pirpas turgach uning xotiniga haqoratli gap aytdi. “Agar bitta bersangiz, o‘raverishingiz mumkin..” Bu gaplarni aytar ekan ovozini balandlatgan holda gapirardi, chunki nariroqdagi eri uni eshitishi uchun. Ammo bug‘doyzor ichida yashirib o‘tirgan eri unga hech nima deya olmadi, hech narsa qila olmadi, shu qadar qo‘rqib ketgan ediki, boshini ham tik ko‘tarib uning oldiga chiqqa olmadi. Ana endi u shu onda “Dayus” degan nomni olgan edi. U o‘zining bu qilgan ishidan shu qadar nafratlandiki, o‘zini kechira olmadi. Axir u o‘z xotinini himoya qila olmadi qo‘rqoqlik qilgan edi. Va shu qo‘rqoqligi uchun “Dayus” nomini olgan edi. Aslida u melisadan emas, balki o‘sha davr tuzumlaridan, o‘sha davr zug‘mlaridan qo‘rqqandir. Hikoya qahramoni u yashab turgan davr tuzumning ta’sirida shu holga kelganligining guvohi bo‘lamiz. U o‘ziga o‘zi “Men dayusman! men lattaman! Men qo‘rqoqman! “deya alamli baqirib yeg‘lardi. Nabi Jaloliddin hikoyada sodir bo‘lgan voqealardan so‘ng qahramon psixologiyasini tasvirlar ekan bu dunyodagi eng og‘ir azob bu vijod azobi ekanligi, o‘z vijdoni oldida aybdor bo‘lish, “Dayus” degan nomni olib yashash o‘lim bilan barobar ekanligini, bunday og‘ir yuk bilan yashay olmaslikni juda tasirli qilib tasvirlab bera olgan.

Nabi Jaloliddinning “Erkagi bor uy” nomli hikoyasi ham xarakterlidir. Bu hikoyada bosh qahramon otasidan erta ajralga beshinchi sinf bolasi edi. Yozuvchi bu hikoyasi qahramoni bo‘lgan beshinchi sinf bolasiga ham nom bermaydi. Yozuvchi bosh qahramonni jasur, qo‘rqmas, erkak kishiga xos g‘ururli qilib tasvirlaydi. Ha, u aynan shunday edi. Yosh bo‘lishiga qaramay o‘z zimmasidagi vazifasini bilardi. U o‘z tenggi bolalarga o‘xshamasdi, ayni damda u xuddi kattalardek fikr yuritardi. U tasodifan onasi bilan xolasi suhbatlashayotganida ularni eshitib qoladi : “ – Ayyonga chiqdimi, shixting qurg‘ur? - so‘radi xolasi ayasidan. – Bo‘yning uzulgir, qo‘li bilan imlab tashqariga chaqirdiyam. Ko‘zlarini yiltirashidan tuzukkina mast ediyamm shekilli, itdan bo‘gan! “Bolakayning murg‘ak qalbi onasi bilan bog‘liq biror ko‘ngilsizlik bo‘lganini sezgandi. “–Yer yutgur, bir-ikki marta ishdan qaytayotganimda-yam suzulib qarovdi. Salomlashib o‘tganimni o‘zicha tushundi shekilli-da .....” – past ovozda sekin- sekin gapirardi ayasi. “-Kechqurun chiqib birga yotaymi?” – so‘radi xolasi dalda beruvchi ohangda. Shu asnoda bolakay bu suhbatni eshitarkan gap nimada ekanligini tushuni. U Onasining hammasiga sabab uyimda erkagim yo‘qligi, erkagim bo‘sa-yu..... deb yig‘lab yuborganidan ko‘ngli buzuldi, ayasiga rahmi keldi, dadasini eslab juda o‘ksindi. Endi uni alam to‘la qandaydir hislar chulg‘ay boshladi. Bizning uyga kechasi keladigan bu odam kim ekan deya o‘ziga o‘zi savol berardi, ayasini xafa qilganlardan o‘ch olish istagi uning tomirlaridagi qonni yigitlarnikiday olovlantirmoqda edi. “–Bizni uyni erkagi yoqmi?... Men-chi?!... Yo‘q, ayajon, biznikidayam erkak bor, ha, bor, ayajon! “–der ekan endi uning oldida katta bir vazifa turganini his qildi. Bolakay bugun tunda uxlamasdan uni poylab chiqishni kim ekanligini bilishni o‘ylab reja tuza boshladi. Va nihoyat tun ham keldi, yarim tun bo‘lishini kutdi. Bu paytda u devor yonidagi katta chinorning ustida uni kuta boshladi. Bir pas otgach kimningdir sharpasi ko‘rindi, bu o‘sha edi. Ularning uyiga kechasi keladigan o‘sha odamni kim ekanligini bildi va unga bu uyning erkagi bor ekanligini isbotladi. Ya’ni unga tuzoq tayyorlab qo‘ygandi. Bola chinor tepasida otrarkan uyi tomon borayotgan “tungi mehmon” ning boshiga guvalani otgan edi uning boshiga tegib zarb bilan yerga yiqildi. Bola bu

ishning uddasidan chiqdi. Bola bu uydagi erkak qilishi kerak bo'lgan vazifani bajargan edi. Ayvondagi so'rida unga kulimsirab boqib turgan ayasi va xolasini ko'rib ma'noli tomoq qirdi-da, mardona yurish bilan ular tomonga yo'naldi.

“Albatta, har qanday mavzu borliqdagi narsa–hodisalar bilan bevosita bog‘liqdir. Badiiy asarda esa asosiy diqqat –e’tibor inson hayoti, uning turli vaziyat –holatdagi kayfiyati, kechinmalari, maqsad, intilishlari, borliqqa qarashlari, kishilar bilan muomala va munosabatiga qaratiladi. Bular badiiy asarning asosiy mavzusidir.”

Yozuvchining “Dayus” nomli hikoyasi qahramoni va “Erkagi bor uy” hikoyasi qahramonlari o‘zaro bir- birlariga o‘xshamagan tarzda zid qo‘yiladi. “Dayus” hikoyasi qahramoni o‘z ayolini himoya qilishdan qo‘rqqan, balki o‘sha davr tuzumidan qo‘rqqan. “Erkagi bor uy” hikoyasi qahramoni unga zid ravishda jasur, qo‘rqmas qilib tasvirlangan. Nabi Jaloliddin qahramon tasviri, ruhiyati, harakterini ifoda qilishdan ko‘ra, u bilan bog‘liq voqealarga to‘xtaladi. Shu orqali badiiy harakterni ochib beradi. Yozuvchi asarda syujet ketma-ketligi, obrazlar tasviriga, qahramon ruhiyati, uning ichki kechinmalari, ozru- o‘ylarini aks ettirishga harakat qilgan.

Yozuvchi o‘z qahramonlarini tasvirlashda xolis, hayotiy, jonli odam sifatida ifodalash mahoratini puxta o‘zlashtirgan, ya’ni muallif asarlarini hayoliy uydurmamalarga emas, hayotiy, real voqealar asosiga quradi. U o‘zining asar yakunida nima demoqchi ekanligini ham ochiq bayon etmaydi, falsafiy –estetik xulosalarni, mushohadaga chorlaydigan yakuniy fikrni u o‘quvchining o‘ziga qoldiradi, ammo obrazlarni, asosan, ramziy fonda aks ettirmaydi.

Muallifning obraz yaratishdagi yana bir mahorati shunda namoyon bo‘ladiki, Nabi Jaloliddin xatto kichik janr atalmish mo‘jazgina hikoyalarda ham obrazlarni xarakter darajasiga chiqara oladi. Hikoyada harakter darajasiga ko‘tarilga obrazning xususiy belgilari ipidan- ignasigacha tasvirlanmasa ham, muallifning ma’naviy- estetik konsepsiyasini ifodalashga, ulkan g‘oyani ilgari surishga xizmat qiladi va o‘zida jamiyatning tarixan aniq tipini mujassamlashtirishga yo‘naltirilga bo‘ladi. Yozuvchining ba’zi hikoyalarini tahlilga tortish jarayonida yuqridagi xususiyatlarning zohir bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. *Urushning davomi: qissa, hikoyalar va roman / N. Jaloliddin.-Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2021. – 336 b.*
2. *Ulug‘ov Abdulla, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, T.:G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2018.*

**TABLE OF CONTENTS**

<b>Sr. No.</b>	<b>Paper/ Author</b>
<b>1</b>	<b>O.H. Boeva, &amp; Ch.Q. Ibragimova. (2023). POLE LIMITATION AND OUTPUT FEEDBACK METHODS OF POLE PLACEMENT. SCHOLAR, 1(9), 4–9. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7811412">https://doi.org/10.5281/zenodo.7811412</a></b>
<b>2</b>	<b>Abdullayeva Sharbat Zulfiqorovna, &amp; Muhiddinova Iroda Farhod qizi. (2023). MARKAZIY BANK INFLYATSION TARGETLASH SIYOSATINING AMALIY AHAMIYATINI OSHIRISH YO'LLARI. SCHOLAR, 1(9), 10–20. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7811416">https://doi.org/10.5281/zenodo.7811416</a></b>
<b>3</b>	<b>Pardayeva Shaxnoza Abdinabiyevna, &amp; Axtamova Mahliyo Narzullo qizi. (2023). BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI. SCHOLAR, 1(9), 21–28. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7811422">https://doi.org/10.5281/zenodo.7811422</a></b>
<b>4</b>	<b>Ataniyazov Jasurbek Xamidovich, &amp; Donaboeva Nargiza Askarovna. (2023). BUDJET TIZIMINING TURLI DARAJALARI O'RTASIDA DAROMADLAR TAQSIMLANISHINING XUSUSIYATLARI. SCHOLAR, 1(9), 29–34. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7811431">https://doi.org/10.5281/zenodo.7811431</a></b>
<b>5</b>	<b>Халилов Р.Ш. (2023). УЧЕБНЫЙ НАТЮРМОРТ- ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ОБУЧЕНИЯ ЖИВОПИСИ. SCHOLAR, 1(9), 35–42. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7811433">https://doi.org/10.5281/zenodo.7811433</a></b>
<b>6</b>	<b>Xolova.U.D. (2023). ASALARILARNING BRAULYOZ KASALLIGINING TARQALISHI. SCHOLAR, 1(9), 43–46. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7811436">https://doi.org/10.5281/zenodo.7811436</a></b>
<b>7</b>	<b>Uzakov Artik Shaymardanovich. (2023). IMPLEMENTATION OF MODERN FORMS OF EMPLOYMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. SCHOLAR, 1(9), 47–57. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7811456">https://doi.org/10.5281/zenodo.7811456</a></b>

8

Магзумова Л.Т, & Рузиева Д.И. (2023). КРЕАТИВНО-ТВОРЧЕСКИЙ ПОДХОД СОТРУДНИКОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ. SCHOLAR, 1(9), 58–61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7811471>

9

Саиткулов Ш.Ш, Халилов Ш.Э, & Холмуминов А.А. (2023). ПОЛИАКРИЛАМИД ВА ОЛТИНГУГУРТ АСОСИДАГИ ГЕЛЬ ВА КОМПОЗИТНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ФАОЛ ҲОССАЛАРНИ НАМОЁН ҚИЛИШИНИ ПРОЛОНГАЦИЯСИ. SCHOLAR, 1(9), 62–65. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7811825>

10

М.А. Boboraimova. (2023). POLITENESS IN CHINESE. SCHOLAR, 1(9), 66–69. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7811835>

11

Nig'matova Shohsanam Nabijon qizi, & Sh.Usmonova. (2023). O'SPIRIN YOSHLARDA O'ZINI-O'ZI ANGLASHNING SIFAT KO'RSATKICHI. SCHOLAR, 1(9), 70–77. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7811837>

12

Normamatova K.SH. (2023). ATMOSFERAGA ANTROPOGEN TA'SIRLAR. SCHOLAR, 1(9), 78–82. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7811845>

13

Nizamova Malika Ravshan qizi. (2023). ABDULLA AVLONIY-MANGULIKKA DAXLDOR ZIYO. SCHOLAR, 1(9), 83–86. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7811849>

14

Ruzaliyev Xojiakbar Shermaxammad o'g'li. (2023). MURAKKAB VA SHAKLDOR YUZALARGA RDB DASTGOHLARIDA ISHLOV BERISH DASTURINI TUZISH UCHUN SIEMENS NX DASTURIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. SCHOLAR, 1(9), 87–91. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813764>

15

Komil Gafforov. (2023). ADVANTAGES OF USING IN A VARIABLE-SPEED ASYNCHRONOUS ENGINE IN PUMPING DEVICES. SCHOLAR, 1(92-96). <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813787>

16

Tuksanova Zebiniso Izatullaevna. (2023). EFFECTIVENESS OF COMPLEX REHABILITATION METHODS IN THE TREATMENT OF OSTEOARTHRITIS. SCHOLAR, 1(9), 97–104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813793>



17

Бобоева Нодира Тўхтамишовна, & Негматова Сурайё Тешаевна. (2023). ЎСИМЛИКХЎР ҚАНДАЛАНИ ҒЎЗА ҲОСИЛ ЭЛЕМЕНТЛАРИГА ЗАРАРИ. SCHOLAR, 1(9), 105–109. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813815>

18

Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, & Darobov Rahmonjon Ravshan o'g'li. (2023). AYOLNI E'ZOZLASH - O'ZBEK XALQIGA XOS OLIJANOV XUSUSIYAT. SCHOLAR, 1(9), 110–113. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813828>

19

Бекмуратова Гулзада Тлеумуратовна. (2023). А.СУЛТАНОВНИНГ ЭСТЕТИК ҚАРАШЛАРИ ЧОЛҒУ МИНИАТЮРАЛАРИ. SCHOLAR, 1(9), 114–124. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813840>

20

Alimbayeva Nodira. (2023). NABI JALOLIDDIN HIKOYALARIDA OBRAZLAR TAHLILI. SCHOLAR, 1(9), 125–129. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813848>